

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000


1. Сеитов Азамат СОЦИОЛОГИЯ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: УГРОЗА ИЛИ ВОЗМОЖНОСТЬ.....5	5
2. Kirsanova N.P., Geger A.E., Gonashvili A.S. YOUTH OF NON-GOVERNMENTAL UNIVERSITIES OF ST. PETERSBURG: A SOCIAL PORTRAIT.....12	12
3. Латипова Нодира, Кара Шохсанам НАСИЛИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН СОВРЕМЕННОСТИ.20	20
4. Сабирова Умида РОЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ.....29	29
5. Якубов Ильдар ПОНЯТИЯ СВОБОДЫ И ВРЕМЕНИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ.....34	34
6. Аликариев Нуриддин, Абдухакимова Зиёда ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ.....41	41
7. Axmedova Feruza TIBBIYOT SOTSILOGIYASI FANINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.....49	49
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA PLATFORMALARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI.....61	61
9. Dulanbayeva Oygul MUTOLAA MADANIYATINING TARKIBI, TUZILMASI VA UNING IJTIMOIY ANAMIYATI.....69	69
10. Кан Людмила КОРЕЙСКИЙ СЛЕД В СОВРЕМЕННОЙ МУЗЫКЕ УЗБЕКИСТАНА: СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ.....76	76
11. Mamatqulova Fotimaxon DAVLAT PENSIYA TA’MINOTI TIZIMINING JORIY HOLATI VA UNI ISLOH ETISH KONSEPSIYASI.....82	82
12. Мухаммадиева Нодира ИНВАЛИДНОСТЬ КАК ОСНОВА ИНКЛЮЗИВНОСТИ.....88	88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Axmedova Feruza,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrası dotsenti (PhD),
e-mail: farihon72@mail.ru

TIBBIYOT SOTSILOGIYASI FANINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15528046>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tibbiyot sotsiologiyasi fanining sotsiologiya fani tizimidagi o‘rni, uning ilmiy obyektı va predmeti, vazifalari, fanlararo xususiyati hamda jamiyatdagi salomatlik bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Tibbiyot sotsiologiyasi inson salomatligiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, psixologik va siyosiy omillarni o‘rganish orqali jamiyatning sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiluvchi fan sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada tibbiyot sotsiologiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlari – ilk nazariy asoslardan tortib, zamonaviy innovatsion yo‘nalishlarigacha tahlil etilgan. Shuningdek, ijtimoiy kasalliklar tushunchasi, ularning jamiyat va iqtisodiyotga ta‘siri, shuningdek, kambag‘allik, ishsizlik, ta‘lim darajasi, ekologik sharoitlar va gender tengsizligi kabi omillar salomatlikka qanday ta‘sir ko‘rsatishi sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. O‘zbekiston misolida mahalla institutining aholini tibbiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdagi roli, aholining tibbiy madaniyati va sog‘liqqa bo‘lgan milliy-madaniy munosabatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirish va sog‘liqni saqlash siyosatida sotsiologik bilimlardan samarali foydalanish zarurligini ilgari surgan. Ushbu maqola tibbiyot sotsiologiyasi fanidagi asosiy nazariy qarashlar va amaliy tadqiqotlarni birlashtirgan holda, uning sotsiologiya fanining mustaqil va dolzarb sohasi sifatidagi o‘rnini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: tibbiyot sotsiologiyasi, ijtimoiy omillar, sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy kasalliklar, ijtimoiy tengsizlik, fanlararo yondashuv, axoli salomatligi, maxalla instituti, sog‘liq siyosati, inson va jamiyat.

Ахмедова Феруза,
доцент (PhD) кафедры Социологии
Национального университета Узбекистана,
e-mail: farihon72@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУКИ СОЦИОЛОГИИ МЕДИЦИНЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается место социологии медицины в системе социологических наук, её научный объект и предмет, функции, междисциплинарный характер, а также значение в анализе проблем, связанных со здоровьем населения. Социология

медицины представлена как наука, способствующая здоровому развитию общества за счёт изучения социально-экономических, культурных, психологических и политических факторов, влияющих на здоровье человека. В статье рассмотрены исторические этапы развития социологии медицины – от первых теоретических оснований до современных инновационных направлений. Также раскрыто понятие социальных болезней, их влияние на общество и экономику, а также влияние бедности, безработицы, уровня образования, экологических условий и гендерного неравенства на здоровье. Особое внимание уделено роли института махалли в Узбекистане как механизма социальной поддержки населения, а также культурным и национальным особенностям отношения к здоровью. Обоснована необходимость совершенствования системы здравоохранения, сокращения социального неравенства и использования социологических знаний в здравоохранительной политике. Статья объединяет ключевые теоретические подходы и прикладные исследования в области социологии медицины, освещая её как самостоятельную и актуальную область социологической науки.

Ключевые слова: социология медицины, социальные факторы, система здравоохранения, социальные болезни, социальное неравенство, междисциплинарный подход, здоровье населения, институт махалли, политика здравоохранения, человек и общество.

Ahmedova Feruza,

Associate Professor (PhD) of the Department of Sociology,
National University of Uzbekistan,
e-mail: farihon72@mail.ru

THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF MEDICAL SOCIOLOGY AS A SCIENCE

ABSTRACT

This article examines the place of medical sociology within the system of sociological sciences, its scientific object and subject, main functions, interdisciplinary nature, and its significance in analyzing health-related social problems. Medical sociology is presented as a science that contributes to the healthy development of society by studying the socio-economic, cultural, psychological, and political factors that influence human health. The article analyzes the historical stages of the development of medical sociology – from early theoretical foundations to modern innovative directions. It also explores the concept of social diseases, their impact on society and the economy, and the sociological analysis of factors such as poverty, unemployment, education level, environmental conditions, and gender inequality. Special attention is given to the role of the mahalla institution in Uzbekistan as a mechanism of social and medical support, as well as to the national and cultural perceptions of health. The article advocates for the improvement of the healthcare system, reduction of social inequalities, and effective use of sociological knowledge in public health policy. By combining core theoretical perspectives and applied research, the article highlights medical sociology as an independent and relevant field within sociology.

Keywords: medical sociology, social factors, healthcare system, social diseases, social inequality, interdisciplinary approach, population health, mahalla institution, health policy, individual and society.

KIRISH

Tibbiyot sotsiologiyasi – bu tibbiyot va sotsiologiya fanlarining kesishuvida shakllangan fan bo‘lib, inson salomatligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni o‘rganishga qaratilgan. U sog‘liqni saqlash tizimini jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida tahlil qiladi hamda salomatlik va kasallikning ijtimoiy tabiatiga alohida e’tibor qaratadi.

Tibbiyot sotsiologiyasining obyekti – **inson, jamiyat, sog‘liqni saqlash tizimi va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardir**. Ushbu fan insonning salomatlikka munosabati, jamiyatdagi

sogʻliq madaniyati, sogʻliqni saqlash muassasalari faoliyati, ijtimoiy guruhlarining sogʻlom turmush tarziga boʻlgan imkoniyatlari kabi jarayonlarni qamrab oladi.

Tibbiyot sotsiologiyasining predmeti – **inson salomatligiga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, psixologik va siyosiy omillarning taʼsirini oʻrganish**dir. Fan predmeti doirasida quyidagi masalalar oʻrganiladi, jumladan, sogʻliqni saqlash tizimidagi ijtimoiy tengsizliklar, shifokor va bemor oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi, kasalliklarning ijtimoiy omillar asosida tarqalishi, jamiyatdagi normalar, qadriyatlar va meʼyorlarning sogʻliqqa taʼsiri [1, –B.5].

Masalan, qishloq va shahar aholisi oʻrtasidagi tibbiy xizmatlarga yetishtlik darajasidagi farq; kambagʻallik, ishsizlik yoki taʼlim darajasi pastligi bilan bogʻliq kasalliklar; shifokorlik etikasi, tibbiy qaror qabul qilishdagi jamoaviy taʼsirlar; kasalliklarga boʻlgan ijtimoiy qarashlar (stigmatizatsiya) va jamiyatdagi munosabatlar.

Tibbiyot sotsiologiyasi inson sogʻligʻini keng ijtimoiy konteksta tahlil qiluvchi fan boʻlib, uning obyekti – inson va jamiyat, predmeti esa – salomatlikka taʼsir etuvchi ijtimoiy omillardir. Bu fan nafaqat nazariy tahlil, balki sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqadi.

Tibbiyot sotsiologiyasi fan sifatida uzoq tarixga ega boʻlib, uning rivojlanishi turli bosqichlarda sogʻliqni saqlash tizimi va jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bogʻliq. Oʻzbekistonda tibbiyot sotsiologiyasining tarixi hali rivojlanish bosqichida boʻlib, uning ilmiy asoslari global tendensiyalar va milliy xususiyatlarga muvofiq shakllanmoqda.

Ilk davr (XVI-XIX asrlar)

Dastlab tibbiyot sotsiologiyasi tibbiy amaliyot va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganishga qaratilgan. Yevropada bu soha V.Pettining «Siyosiy arifmetika» (1690) asaridagi ijtimoiy tahlillardan boshlangan. Oʻzbekistonda bu davrda tibbiy-ijtimoiy tadqiqotlar oʻtkazilmagan boʻlsa-da, milliy tibbiyot anʼanalari, jumladan, Abu Ali ibn Sinoning asarlari ijtimoiy salomatlik tushunchasiga asos boʻlgan [2].

Shakllanish davri (XX asr boshi)

XX asr boshlarida tibbiyot va sotsiologiya fanlarining uygʻunlashuvi tezlashdi. Tibbiy sotsiologiyaning asosiy vazifasi kasalliklarning jamiyatdagi tarqalish sabablari va oqibatlarini oʻrganish boʻldi. Oʻzbekistonda bu davrda xalq tabobati va jamiyat salomatligiga qaratilgan tadqiqotlar cheklangan boʻlib, asosan anʼanaviy tibbiyot amaliyoti ustunlik qilgan.

Rivojlanish davri (XX asrning 50-80-yillari)

Ikkinchi jahon urushi tufayli tibbiy sotsiologiya global ahamiyat kasb eta boshladi. Oʻzbekistonda ham shifokorlar va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganish, sogʻliqni saqlash tizimining ijtimoiy ahamiyatini tushunishga intilish paydo boʻldi. Sovet Ittifoqi doirasidagi ilmiy ishlanmalar Oʻzbekiston tibbiyotining rivojlanishiga turtki boʻldi. Masalan, ijtimoiy gigiena va tibbiy reabilitatsiya sohasidagi ishlarning ijobiy taʼsiri kuzatildi.

Zamonaviy davr (XX asrning 80-yillaridan boshlab)

Oʻzbekistonda mustaqillikka erishgandan soʻng tibbiy sotsiologiya sohasida milliy tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Sogʻliqni saqlash tizimidagi islohotlar, jumladan, mahalla institutlarining aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashdagi roli muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda tibbiy sotsiologiya aholi salomatligi, ijtimoiy kasalliklarning tarqalish sabablari va ularning oldini olish strategiyalarini oʻrganishda muhim fan sifatida rivojlanmoqda [3, -B.97-104].

Tibbiyot sotsiologiyasi XVII-XX asrlarda sotsiologiya, tibbiyot va bioetika sohalari kesishmasida shakllangan fan boʻlib, uning ilk nazariy asoslarini quyidagi olimlar yaratgan (1-jadval).

Tibbiyot sotsiologiyasining yuzaga kelishi turli mualliflar tomonidan tibbiyot va sogʻliqni saqlash sohasida oʻtkazilgan tadqiqotlar bilan uzviy bogʻlangan holda tavsiflanadi. Jumladan, Angliyalik olim Uilyam Petti (1623-1687) – statistika va iqtisodiyot sohasidagi ishlari bilan tanilgan. Uning «Siyosiy arifmetika» (1690) asarida jamiyatda sogʻliqni saqlashning oʻrni sotsiologik yondashuv bilan tahlil qilingan. Bu ish tibbiyot sotsiologiyasidagi ilk nazariy tahlillardan biri sifatida qaraladi.

Nemis olimi M. Susser tibbiyotdagi ijtimoiy tahlilni birinchi bo‘lib aynan U.Pettining ishlarida ko‘radi. U sog‘liqni jamiyatning umumiy rivoji bilan bog‘laydigan ilk tahlilni shu asarda ko‘rsatadi [4, – B.64].

Tibbiyot sotsiologiyasining shakllanishiga xissa qo‘shgan olimlar

1-jadval.

Yil / Asr	Hodisa / Shaxslar	Ahamiyati
XVII asr	D.Graun, V.Pett, D.Saymon, E.Chedvik, U.Farr, J.Berjilon (G‘arbiy Yevropa)	Jamoat salomatligini statistik metodlar asosida o‘rganish boshlandi. Sanitar statistika ijtimoiy tibbiyotning poydevori sifatida qaraldi.
XIX asr	A.P.Peskov (Qozon universiteti)	“Tibbiy geografiya va tibbiy statistika” nomli kurs o‘qib, tibbiyotning ijtimoiy masalalariga ilmiy yondashuvni taklif qildi.
1778- yil	I.P.Frank	«Jamoat salomatligini takomillashtirish tizimi» asarida tibbiy muassasalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarurligini ilmiy asosladi.
XIX asr	A.Greving	Ijtimoiy tibbiyot mustaqil fan sifatida shakllandi. A. Greving uning asoschisi sifatida tan olingan.
XIX asr oxiri	Germaniya va Yevropada	Jamoat tibbiyoti, tibbiy sug‘urta va sog‘liqni saqlashni davlat tomonidan moliyalashtirish amaliyoti yaratildi.

METODOLOGIYA

Professor K.Uinter tibbiyot sotsiologiyasining mustaqil fan sifatida shakllanishini XX asrning o‘rtasiga bog‘laydi. Sovet olimlari – I.B.Vengrova va Yu.A.Shilinis esa tibbiyot sotsiologiyasining boshlanishini Mak-Intayr (1895) nomi bilan bog‘laydilar. 1868-yilda nemis tadqiqotchisi L.Gasper tomonidan nemis axloqlilar va Berlindagi kambag‘al aholi orasidagi o‘rtacha umr davomiyligi haqida statistik ma‘lumotlar e‘lon qilingan. Xuddi shu davrda, Angliyada ham shunga o‘xshash ma‘lumotlar e‘lon qilingan (S.Cley (1844), J.Gavin (1848), W.Farr (1864)) tomonidan. XX asrda Germaniyada ijtimoiy tibbiyot sohasida mashhur va ta‘sirli olimlar faoliyat yuritgan (Rudolf Virxov (R.Virchow), Zigfrid Noyman (S.Neumann)) [5, – B.3-13].

Rudolf Virxov tibbiyotni ijtimoiy fan sifatida e‘lon qilgan. Uning “Yuqori Sileziyada tif epidemiyasi to‘g‘risida xabarlar” nomli asari – nemis ijtimoiy gigienasi sohasidagi klassik tadqiqot sifatida tan olingan.

Z.Noyman (S.Neumann), “Jamoatning sog‘liq uchun g‘amxo‘rligi va mulk huquqi” («Общественная забота о здоровье и собственности») nomli ishida tibbiyot ijtimoiy fanlar tarkibiga kiradi, deb ta‘kidlagan.

XIX asr oxirida sog‘liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy tahlillar turli mamlakatlarda rivojlana boshladi. Bu tahlillar aholi orasidagi turmush tarzi, kasalliklar tarqalishi va umr davomiyligini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, tibbiyotni faqat klinik emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilishga asos soldi.

XX asr boshlarida sotsiologiya va tibbiyot kesishmasidagi ilmiy ishlanmalar jadal rivojlana boshladi. 1902-yilda Elizabet Blekvellning ikki tomndan iborat “Essays on Medical Sociology” (Tibbiyot sotsiologiyasi haqidagi maqolalar) to‘plami nashr etildi. 1910-yilda esa “Meditsinskaya sotsiologiya” nomli kitob chop etildi, u tibbiyot sotsiologiyasi rivojida muhim o‘rin tutdi.

1912-yilda A.Gotjan (A.Gotjan) tomonidan yozilgan “Ijtimoiy patologiya” kitobi soha uchun muhim bo‘ldi. Bu kitobda kasalliklarni ijtimoiy nuqtai nazardan o‘rganishning ilmiy prinsiplari bayon etilgan. Ushbu prinsiplar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.

AQShda XX asr boshlarida tibbiy-sotsiologik yoʻnalishda statistik tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar aholi sogʻligʻi dinamikasini demografik, iqtisodiy va ijtimoiy koʻrsatkichlar asosida oʻrganishga yoʻnaltirilgan.

Ular kasalliklarni tarqalishi va jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni harakat qilgan. XX asr boshlarida tibbiyot sotsiologiyasi normativ va statistik asosga ega boʻlib, fan sifatida shakllana boshladi. Blekvell, Gotjan va boshqa olimlar sogʻliqni jamiyatning umumiy holati bilan bogʻlashga urinishdi. Bu davrdagi ishlar hozirgi tibbiyot sotsiologiyasining ilk nazariy poydevori boʻldi.

Rossiyada tibbiyot sotsiologiyasining ilk rivojlanish bosqichi ruhiy kasalliklar (psixiatriya) sohasidagi ilmiy izlanishlar bilan bogʻliq boʻldi. Ilk empirik tadqiqotlar statistik metodologiya asosida olib borilgan boʻlib, asosiy eʼtibor alkogolizm muammosiga qaratilgan. XX asr boshlarida Rossiyada sotsiologiya nazariyalari va metodlari tibbiyot sohasida qoʻllana boshlangan. 1909-yildan boshlab V.M.Bexterev rahbarligidagi Psixonevrologik institutida tibbiy sotsiologiya oʻqitila boshlangan. 1913-yilda esa Z.G.Frenkel tashabbusi bilan Profilaktik tibbiyot akademiyasida ijtimoiy gigiena kafedrasini tashkil etilgan. Rossiyada tibbiyot sotsiologiyasining ilk rivoji psixiatriya, ijtimoiy gigiena va statistik tadqiqotlar bilan bogʻliq boʻlgan. V.M.Bexterev bu sohada ilk oʻquv kurslarini tashkil etgan, Z.G.Frenkel esa ijtimoiy gigienani mustaqil fan sifatida ilgari surgan. Shu orqali tibbiy muammolarga ijtimoiy yondashuv shakllanib borgan.

Tibbiyot sotsiologiyasining shakllanish davri (1920-1940-yillar, I va II jahon urushlari orasidagi davr). Evropa mamlakatlarining koʻpida Birinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy tibbiyot sohasida tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlandi. Gʻarbda tibbiyot sotsiologiyasining yuzaga kelgan formal sanasi sifatida 1923-yil qabul qilingan, chunki ayni shu yili Buyuk Britaniyada N.Zigerist (Henry Sigerist)ning fundamental ilmiy asari chop etilgan. N.Zigerist – shveysariyalik-amerikalik tarixchi va sogʻliqni saqlash sohasi tadqiqotchisi boʻlib, tibbiyotni keng ijtimoiy jarayon deb qarashni ilgari surgan. Uning asarlarida tibbiyotning faqat klinik emas, balki tarixiy, iqtisodiy va madaniy tomonlari ham yoritilgan. Shu sababli, tibbiyot sotsiologiyasi mustaqil fan sifatida aynan shu davrda shakllangan, deb hisoblanadi. 1920-1940-yillar tibbiyot sotsiologiyasining Gʻarbda ilmiy fan sifatida shakllanishi va institutsionallashuvi davri boʻlgan. Bu davrda ijtimoiy sogʻliq, davlat siyosatining sogʻliqqa taʼsiri, va axolining turmush darajasi asosiy tadqiqot obʼektlariga aylangan.

Tibbiyot sotsiologiyasining mustaqil fan sifatida rivojlanish davri 1950-1980-yillarga toʻgʻri keladi. Ikkinchi jahon urushidan soʻng, tibbiyot sotsiologiyasi mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida ajralib chiqdi. Avval, faqat shifokorlar ushbu sohada faoliyat yuritgan boʻlsa, bu davrda kasbiy sotsiologlar ham sohaga faol jalb etila boshladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda tibbiy-sotsiologik tahlilning barqaror metodlari shakllandi [6, – B.76].

Bu metodlar tibbiyotning jamiyatdagi roli, sogʻliqni saqlash tizimi, bemorning jamiyatdagi oʻrni, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda tibbiy munosabatlar kabi masalalarni qamrab oldi. Shu bilan birga, tibbiyot sogʻalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun sotsiologik bilim va tahlil malakasiga ehtiyoj paydo boʻldi. 1950–1980-yillar tibbiyot sotsiologiyasining toʻlaqonli fan sifatida shakllanish davri boʻlib, bu davrda nazariy asoslar mustahkamlandi, amaliyotga sotsiologik yondashuv joriy etildi va tibbiyot xodimlari uchun sotsiologiya boʻyicha taʼlim berish zarurati vujudga keldi [7, – B.91-99].

1960-yillar oxiri va 1970-yillar davomida Sovet Ittifoqida keng koʻlamli tibbiy-ijtimoiy muammolar faol tadqiq qilina boshlandi. Bu davrda tibbiyot sotsiologiyasi sohasida mustahkam nazariy asosga ega boʻlgan ilmiy ishlar paydo boʻldi. 1960-1970-yillar tibbiyot sotsiologiyasida ilmiy maktablar shakllangan, mukammal metodologiyalar va nazariy modellar yaratilgan davr hisoblanadi. Bu davrdagi tadqiqotlar faqat amaliyotni emas, balki fanning ilmiy asoslarini ham mustahkamlab berdi (2-jadval).

Tibbiyot sotsiologiyasi doirasida jamiyatning faoliyat mexanizmlari bilan bogʻliq ayrim asosiy qonuniyatlar aniqlangan va miqdoriy jihatdan oʻlchangan. Emil Dyurkgeym tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy anomiya nazariyasi sogʻliqni saqlash sohasida tajriba asosida tasdiqlangan. Bundan tashqari, 1956-yilda Gans Sele (H.Selye) tomonidan taklif etilgan stressning ijtimoiy modeli jamiyatdagi psixopatologik holatlarni nazariy tushuntirishda katta imkoniyatlar yaratib berdi.

1960-yillar oxiri va 1970-yillar davomida tibbiyot sotsiologiyasining rivojiga xissa qo‘shgan olimlar

2-jadval

Olimlar	Qo‘shgan hissasi
Yu.P.Lisisin	Ijtimoiy gigiena va sog‘liqni saqlash tashkiliy masalalari bo‘yicha ilmiy maktab asoschilaridan biri.
G.I.Saregorodsev	Tibbiy-sotsiologik tahlillarning metodik asoslarini ishlab chiqqan.
E.M.Izutkin	Sog‘liqni saqlash tizimidagi ijtimoiy munosabatlar va jamoat salomatligi muammolarini o‘rgangan.
I.V. Davidovskiy	Aholi sog‘lig‘i dinamikasi va ijtimoiy sog‘lom turmush sharoiti munosabatini tahlil qilgan.
V.P.Petlenko	Sog‘liq siyosatida ijtimoiy tenglik va himoya mexanizmlarini o‘rgangan.
G.X.Shingarov	Sog‘liqni saqlashda sotsiologik tadqiqotlarning amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha ishlar qilgan.

XX asr oxirida postsovet mamlakatlarida yuz bergan katta ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar fonida aholi sog‘lig‘ining tanazzul darajasi sezilarli darajada kuchaydi. Bu holat sog‘liqni saqlash va jamoat salomatligiga oid muammolarni kengroq, sotsiologumanitar nuqtai nazardan o‘rganish zaruratini keltirib chiqardi. Bu davrdan boshlab sog‘liq va tibbiyot masalalariga sotsiologik jamoatchilik keng jalb etiladigan yondashuv rivojlandi. Sog‘liqqa ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillar, aholining sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lishi, hamda inson omillarining umumiy tizimdagi roli yanada dolzarb bo‘ldi. Belorussiyada tibbiyot sotsiologiyasining rivojiga Chernobil AES fojiasining (1986) ijtimoiy-ruhiy oqibatlar ham ta’sir ko‘rsatdi. Bu holat salomatlikning nafaqat biologik, balki ijtimoiy va ekologik tavakkallar bilan bog‘liq ekanligini yanada aniqlashtirdi.

Zamonaviy tibbiyot sotsiologiyasi fani faqat tibbiy muassasalardagi jarayonlarni emas, balki aholining salomatlik holatiga ta’sir qiluvchi barcha ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik omillarni qamrab olmoqda. Bu yo‘nalishda sotsiologlarning ishtirokini kuchaytirish va sog‘liqni sotsiologumanitar fanlar kontekstida o‘rganish dolzarb masalaga aylangan. Reshetnikov Andrey Veniaminovich Rossiyada tibbiyot sotsiologiyasini ilmiy fan sifatida shakllantirish va unga metodologik asos yaratishda muhim rol o‘ynagan. U birinchi bo‘lib tibbiyot sotsiologiyasi fanida davlat miqyosidagi strategik rejalashtirish va ijtimoiy siyosat bilan bog‘liq tadqiqotlarni olib borgan. Aynan A.V.Reshetnikov rahbarligida Rossiyada majburiy tibbiy sug‘urta (OMS – Obyazatelnoe meditsinskoe straxovanie) tizimini uzoq muddatli rejalashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Bu orqali aholiga tibbiy xizmatlardan keng va teng foydalanishni ta’minlash maqsad qilingan. Uning shogirdlari sotsiologiya va tibbiyotni uyg‘unlashtiruvchi fanlarda ilmiy faoliyat yuritmoqda. A.V.Reshetnikov ta’lim sohasida ham faol: tibbiyot oliygohlari va sotsiologiya fakultetlarida sog‘liqni saqlash sotsiologiyasidan dars bergan. Andrey Veniaminovich Reshetnikov – Rossiya tibbiyot sotsiologiyasining asoschilaridan biri sifatida tan olingan, ilmiy-nazariy ishlanmalar bilan birga, amaliyotga yo‘naltirilgan siyosiy-ijtimoiy islohotlarni ham amalga oshirgan olimdir. Uning faoliyati sog‘liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy adolat, tenglik va samaradorlik masalalarini ilmiy nuqtai nazardan hal qilishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

O‘zbek jamiyatining hozirgi rivojlanish bosqichidagi tibbiyot sotsiologiyasining vazifalari. O‘zbek jamiyatida tibbiyot sotsiologiyasi sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ijtimoiy tengsizliklarni qisqartirish va aholining salomatligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda tibbiyot sotsiologiyasi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi zarur:

Ijtimoiy omillarni o‘rganish: Salomatlikka ta’sir qiluvchi ekologik, iqtisodiy, madaniy va psixologik omillarni tahlil qilish.

Sog'liqni saqlashda tengsizliklarni qisqartirish: Qishloq va shahar aholisi o'rtasida tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi farqlarni tahlil qilish.

Ijtimoiy kasalliklarning oldini olish: OIV/OITS, narkomaniya va alkogolizm kabi ijtimoiy kasalliklar tarqalishini o'rganish va kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Sog'liqni saqlash siyosatiga yordam berish: Milliy va xalqaro standartlarga muvofiq, sog'liqni saqlash siyosatini takomillashtirish uchun tahliliy ma'lumotlar taqdim etish.

Ijtimoiy kasalliklar. Ijtimoiy kasalliklar – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklardir. Masalan, kambag'allik, ishsizlik, savodsizlik va ijtimoiy tengsizlik narkomaniya, alkogolizm va depressiya kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

O'zbekistondagi ijtimoiy kasalliklar qatoriga sil kasalligi, OIV/OITS, shoshilinch yordamga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilmasligi va yuqori stress darajasi kiradi. Tibbiyot sotsiologiyasi ushbu muammolarni tizimli tahlil qilish orqali ularni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqadi.

O'zbekistonda tibbiyot sotsiologiyasining rivojlanish xususiyatlari. O'zbekistonda tibbiyot sotsiologiyasining rivojlanishi hali yangi yo'nalish bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari sog'liqni saqlash tizimidagi ijtimoiy o'zgarishlar va aholining salomatlikka bo'lgan munosabatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar asosan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan. O'ziga xos xususiyatlar:

Ijtimoiy omillar ta'siri: Salomatlikka ta'sir qiluvchi kambag'allik, ekologik holat, ishsizlik kabi omillarning o'rganilishi.

Kambag'allik insonning asosiy tibbiy xizmatlarga yetishi, ozuqa sifatini ta'minlashi va umumiy hayot tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Daromadi past bo'lgan aholi guruhlari orasida kasalliklar, xususan surunkali va yuqumli kasalliklar yuqori uchraydi. Kambag'allik sog'liq uchun zarur dori-darmon, diagnostika va davolanish vositalarini qo'llash imkoniyatini cheklaydi [8, – B.15-20].

Atrof-muhit salomatlik uchun muhim faktorlardan biri hisoblanadi. Iflos havo, zaxarli chiqindilar, ichki ichimlik suvining ifloslanishi, kimyoviy moddalar bilan ifloslangan ozuqa mahsulotlari – bularning barchasi odamlarda nafas yo'llari, hazm tizimi va onkologik kasalliklarning ko'payishiga olib keladi. Qishloq joylarda agrosanoat chiqindilari, shaharlarda sanoat gazlari aholi salomatligi uchun jiddiy tahdiddir. Ishsizlik odamlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir etadi. Umumiy xavotir, tushkunlik, ruhiy muvozanatning buzilishi va o'z joniga qasd qilish holatlari ishsizlar orasida yuqoriroq qayd etiladi. Shuningdek, vaqtincha yoki to'liq ishsiz aholi tibbiy sug'urta va rasmiy tibbiy xizmatlardan foydalanishda qiyinchilikka uchraydi. Bundan tashqari, noqonuniy mehnat bozorida ishlayotganlar xavfli sharoitlarda ishlab, o'z sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadi.

Ma'lumot darajasi ham salomatlik bilan chambarchas bog'liq. Sog'liqni saqlashga oid savodxonligi past bo'lgan insonlar profilaktik choralarni qo'llamasligi, kasallikni erta aniqlash imkoniyatlaridan foydalanmasligi mumkin. Ta'limli insonlar ko'proq tibbiy ma'lumotga ega bo'lib, turli salomatlikka oid tavsiyalarga rioya qilishga moyil bo'ladi.

Ayollar, ayniqsa kambag'allikda yoki qishloq joylarda yashovchi ayollar, ko'pincha tibbiy xizmatlarga yetarlicha yetishmaydi. Ular uchun sog'liqni saqlashning ba'zi sohalari (ginekologiya, reproduktiv salomatlik) yetarlicha rivojlanmagan yoki jisman mavjud emas. Gender tengsizligi ayollar sog'lig'ining nazardan chetda qolishiga olib keladi.

Mahalla institutining o'rni: Mahalla ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida tibbiy-ijtimoiy tadqiqotlarda muhim rol o'ynaydi. Mahalla – O'zbekistonda mahalliy jamiyatni tashkil etuvchi, aholi hayotini turli sohalarda muvofiqlashtiruvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. U jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish va ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan:

- aholining real ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida eng aniq ma'lumotga ega;
- homiylik va moddiy yordam taqsimoti, kasallarga ko'maklashish, nogironlar va keksalarga xizmat ko'rsatish kabi amaliy mexanizmlarni joriy etadi;
- salomatlik madaniyatini oshirish, profilaktik tadbirlar (skrininglar, tibbiy ko'riklar) tashkil etishda tashabbuskor subyekt sifatida ishtirok etadi;

- aholi o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish, kasalliklarning erta oldini olish va jamoaviy profilaktikada institutsional ko'prik vazifasini o'taydi.

O'zbekiston jamiyatida salomatlikka milliy va madaniy qarashlarni tahlil qiladigan bo'lsak, aholining salomatlik va kasallikka bo'lgan munosabati – bu nafaqat tibbiy, balki madaniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq masaladir. O'zbekiston jamiyatida salomatlikka bo'lgan munosabat tarixiy an'analar, diniy e'tiqodlar, mahalliy urf-odatlar, va oilaviy tarbiyaning ta'sirida shakllanadi. Aholida salomatlikka milliy va urf-odatlarga asoslangan munosabat mavjud. O'zbek jamiyatida salomatlik ko'pincha hayot tarzi, ma'naviy poklik va sog'lom turmush qadriyatlari bilan uyg'un holda qabul qilinadi. An'anaviy qarashlarga ko'ra, inson o'z tanasiga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi, sog'lom ovqatlanishi, jismoniy mehnat va tozalikni saqlashi shart. Ayrim hollarda esa, kasalliklar «taqdir», «yo'l qo'yilgan gunoh», yoki «sinov» sifatida qabul qilinib, tabiiy jarayon deb baholanadi.

Islom dinida sog'lik – Allohning ne'matlaridan biri sifatida qaraladi. Biroq ba'zi hollarda diniy qarashlar tibbiy muammolarni zamonaviy usullarda hal qilishga to'sqinlik qilishi mumkin (masalan, profilaktika tadbirlarini kechiktirish, qon topshirishga shubha bilan qarash va h.k.). Shuningdek, ruhiy kasalliklarga nisbatan «jin ta'siri», «sehr» kabi xalqona tushunchalar ham hozirgacha faol.

Ayollar o'z salomatligiga erkaklarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratishsa-da, ularda salomatlik muammolarini ochiq aytishda ijtimoiy uyalish holatlari mavjud. Yoshlar orasida profilaktikaga nisbatan qiziqish past; ular ko'pincha kasallikni «vaqtincha holat» sifatida qabul qilishadi. O'zbekistonda an'anaviy tabobat (xalq shifokorligi, giyohvandlik) hali ham keng tarqalgan. Ayrim aholi qatlamlari zamonaviy tibbiy yordamga emas, balki xalqona usullarga ustuvorlik berishadi. Bu esa ba'zan kasalliklarning kechikishi yoki asoratlar bilan kechishiga olib kelishi mumkin.

Sog'liqni saqlash madaniyati – bu aholining profilaktikaga, davolanishga, tibbiy tekshiruvlarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Bu madaniyatni shakllantirishda ta'lim, ommaviy axborot vositalari va mahalla tizimi muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, O'zbekiston jamiyatida kasallikka munosabat nafaqat individual, balki ijtimoiy va madaniy tizimning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Tibbiyot sotsiologiyasi ana shu qarashlar, e'tiqodlar va urf-odatlarni chuqur o'rganish orqali sog'liqni saqlash tizimini yaxshilashga, aholining tibbiy savodxonligini oshirishga hissa qo'shadi.

Tibbiyot sotsiologiyasi fanining rivojlanishi va global ijtimoiy-demografik o'zgarishlar sharoitida uning tadqiqot yo'nalishlari tobora kengayib bormoqda. Jahon tajribasi va O'zbekistondagi mahalliy shart-sharoitlar asosida tibbiyot sotsiologiyasining quyidagi zamonaviy yo'nalishlari ajratib ko'rsatiladi:

1. *Aholining tibbiy xizmatdan foydalanish darajasini o'rganish.* Bu yo'nalishda aholining tibbiy muassasalarga murojaat qilish faolligi, tibbiy sug'urtaga yetishi, sog'liqni saqlash xizmatlaridan qanday foydalanishi, uning oldidagi to'siqlar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, jins, yosh, ta'lim darajasi, yashash joyi kabi ijtimoiy belgilarga qarab tibbiy xizmatlarga yetishishdagi farqlar ham o'rganiladi.

2. *Sog'liqni saqlash sohasida innovatsion yechimlarni ishlab chiqish.* Innovatsion yondashuvlar – tibbiyot sotsiologiyasida zamonaviy raqamli texnologiyalar, telemeditsina, elektron tibbiy kartalar, avtomatlashtirilgan tashxis tizimlari kabi ilg'or usullarni joriy etishni o'rganish bilan bog'liq. Bu yo'nalishda fuqarolarning innovatsiyalarga munosabati, raqamli tengsizlik muammosi va zamonaviy yechimlarning samaradorligi sotsiologik nuqtai nazardan baholanadi.

3. *Ijtimoiy kasalliklar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini tahlil qilish.* Ijtimoiy kasalliklar deganda jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlar bilan bog'liq holatda keng tarqaladigan kasalliklar (masalan: OITS, alkogolizm, giyohvandlik, stress, depressiya va boshqalar) nazarda tutiladi. Bu yo'nalishda mazkur kasalliklarning kelib chiqish sabablari, jamiyatdagi ta'siri, profilaktika tadbirlarining samaradorligi hamda davlat siyosatidagi o'rni tahlil etiladi.

4. *Sog'liqni saqlashda gender tengsizligi muammosi.* Ayollar va erkaklar o'rtasida tibbiy xizmatlardan foydalanish, salomatlik madaniyati va ehtiyojlardagi farqlar, ayniqsa, reproduktiv sog'liq, zo'ravonlik, va ona-bola salomatligi masalalari bu sohada muhim o'rin tutadi.

5. *Axborot texnologiyalari va tibbiy savodxonlik.* Internet va ommaviy axborot vositalari orqali aholining tibbiy ma'lumotlarga yetishi, ularning sog'liq to'g'risidagi tushunchalari va qaror qabul qilish jarayonida mediasavodxonlik darajasi sotsiologik tahlil obyektiga aylanmoqda.

Tibbiyot sotsiologiyasi fani nafaqat sog'liqni saqlash tizimini samarali tashkil etishda, balki aholining tibbiy madaniyatini shakllantirishda, sog'liqni saqlash siyosatini ijtimoiy nuqtai nazardan asoslashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Salomatlik faqat shaxsiy ahvol emas, balki jamiyat uchun ham muhim resurs sifatida qaraladi. Masalan, sog'lom aholi mehnat qobiliyatiga ega, iqtisodiy faol bo'ladi, ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shadi. Shu bois, sog'liqni saqlash faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy siyosatning ham asosiy yo'nalishlaridan biridir. Masalan, kambag'al jamiyatlarda kasallik darajasi yuqori bo'lishi mumkin, bu esa mehnat unumdorligi, ta'lim sifati va milliy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'liq inson organizmidagi fiziologik holatlarga bog'liq. Qon bosimi, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish, immunitet kabi biologik ko'rsatkichlar uning asosiy belgilaridir. Lekin insonning sog'lomligida biologik holatning o'zi yetarli emas – ijtimoiy muhit ham uni shakllantiradi yoki zaiflashtiradi. Masalan, bir kishi biologik jihatdan sog'lom bo'lishi mumkin, lekin og'ir psixologik sharoit (stress, ishsizlik, jamiyatdagi bosim) uning umumiy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Salomatlik jamiyatdagi ijtimoiy omillar bilan bog'liq jarayondir. Bu – ta'lim darajasi, turmush tarzi, ish joyi, yashash sharoiti, jins, yosh, kasb kabi omillar bilan shakllanadi. Shu sababli, salomatlikdagi farqlar turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida kuzatiladi. Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi salomatlik ko'rsatkichlari farq qiladi: shaharda tibbiy xizmatlarga yetishish osonroq, qishloqda esa turli cheklovlar mavjud. Shuningdek, ayollar va erkaklar, yoshlar va keksalar orasidagi tibbiy ehtiyoj va muammolar turlicha bo'ladi (3-jadval).

Inson sog'ligining ahamiyati

3-jadval

Holat	Ta'rif va izoh
Salomatlik va uning ijtimoiy ahamiyati	Inson salomatligi biologik va ijtimoiy omillar uyg'unligi natijasida shakllanadi. U faqat individual holat emas, balki jamiyat uchun ham muhim ijtimoiy kapital hisoblanadi.
Salomatlik biologik asos	Salomatlik organizmning tabiiy hayotiy jarayonlari asosida shakllanadi, lekin uning namoyon bo'lishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq.
Salomatlik ijtimoiy jarayon	Salomatlik ijtimoiy tuzilma, iqtisodiy holat, madaniy qadriyatlar, ta'lim, turmush sharoiti va jinsiy/yosh guruhlar bilan bog'liq holda baholanadi.

Demak, insonlarning salomatlik masalasi bu faqat shifokorlarning ishi emas. U butun jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy tizimi bilan bog'liq. Shu bois, tibbiyot sotsiologiyasi salomatlikni kompleks jarayon sifatida ko'rib chiqadi va uning turli darajalardagi ta'sirlarini chuqur tahlil qiladi.

Shaxsiy salomatlik – bu har bir insonning shaxsiy jismoniy va ruhiy holatidir. Bu holat uning o'zini qanday his qilishi, organizmi qanday faoliyat ko'rsatishi va ruhiy barqarorligini qamrab oladi. Shaxsiy salomatlik har bir shaxs uchun individual holat bo'lib, uning yoshi, jinsi, turmush tarzi, ta'limi, ish sharoiti va yashash muhiti bilan bog'liq. Shaxsiy salomatlik insonning kundalik faoliyati, mehnat qobiliyati, ijtimoiy faolligi, ta'lim olishi yoki oilasini ta'minlashi uchun asos hisoblanadi. Ruhiy salomatlik esa shaxsning hayotdan qoniqishi, munosabatlar sifati va umumiy hayot darajasini belgilaydi [9, – B.596-605].

Jamoat salomatligi – bu aholi guruhlari, shahar, tuman yoki mamlakat darajasidagi umumiy salomatlik holatini ifodalovchi makroiqtisodiy va ijtimoiy kategoriyadir. Buni statistik ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin: tug'ilish va o'lim darajasi, kasalliklar tarqalishi, umr davomiyligi va h.k. Jamoat salomatligi mamlakatning milliy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Agar jamiyatda aholi sog'lom bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi yuqori, ta'lim natijalari yaxshiroq va iqtisodiy o'sish barqaror bo'ladi [10]. Shu bois, jamoat salomatligi davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (4-jadval).

Salomatlik turi

4-jadval

Turi	Ta'rifi	Ahamiyati
Shaxsiy salomatlik	Insonning shaxsiy holati: jismoniy va ruhiy salomatlik. Aniq jins, yosh, kasb, hudud bo'yicha baholanadi.	Shaxsning ish qobiliyati, hayot sifati va ruhiy barqarorligi bilan bog'liq.
Jamoat salomatligi	Makroiqtisodiy va ijtimoiy kategoriya: mamlakat yoki jamiyatning umumiy sog'liq holatini aks ettiradi.	Milliy boylik, ta'lim, hayot sifatining asosiy ko'rsatkichi; ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishidir.

Ijtimoiy kasalliklar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. Ijtimoiy kasalliklar – bu inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, psixologik va ekologik sharoitlari ta'sirida yuzaga keladigan va tarqalishi keng miqyosda kuzatiladigan kasalliklardir. Ular tibbiy sabablardan ko'ra ko'proq **ijtimoiy muhit, turmush tarzi, qashshoqlik, axborot yetishmovchiligi va ijtimoiy tengsizlik** bilan bog'liq bo'ladi.

Eng ko'p uchraydigan ijtimoiy kasalliklar:

- 1.OITS/VICH (HIV/AIDS).
- 2.Giyohvandlik va alkogolizm.
- 3.Ruxiy va stressga bog'liq kasalliklar.
- 4.Suiqasd va o'z joniga qasd qilish holatlari.
- 5.Ovqatlanish buzilishi (anoreksiya, semizlik).
- 6.Bolalar va kattalar o'rtasidagi zo'ravonlik va psixologik travmalar.

7.Qashshoqlik tufayli rivojlanadigan surunkali kasalliklar (tuberkulyoz, kamqonlik, gipertoniya va b.) (5-jadval). Ijtimoiy kasalliklar mehnat qobiliyatini pasaytiradi, ish kunlarining yo'qotilishiga, ish joyida samarasizlikka olib keladi. Bu esa iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazadi. Bunday kasalliklarni davolash uchun zarur dori-darmon, dispanserlashtirish, maxsus tibbiy xizmatlar katta mablag' talab qiladi. Bu xarajatlar davlat byudjetiga yuk bo'ladi [11].

Ijtimoiy kasalliklar

5-jadval.

№	Kasallik turi	Qisqacha izoh
1	OITS/VICH (HIV/AIDS)	Asosan jinsiy aloqa, qon orqali yuqadi; ijtimoiy oqibatlar katta: stigma, diskriminatsiya, ijtimoiy izolyatsiya.
2	Giyohvandlik va alkogolizm	Psixoaktiv moddalarga bog'liqlik. Jinoyatchilik, oilaviy zo'ravonlik va mehnat qobiliyati pasayishiga olib keladi.
3	Ruxiy va stressga bog'liq kasalliklar	Depressiya, nevroz, xavotir buzilishi. Ruhiy salomatlikdagi muammolar ish qobiliyatini pasaytiradi, ijtimoiy muvozanatga ta'sir qiladi.
4	Suiqasd va o'z joniga qasd qilish	Ruhiy kasalliklar, ijtimoiy yakkalik, stress oqibati. Jamiyatda yoshlar orasida ko'p kuzatiladi.
5	Ovqatlanish buzilishi (anoreksiya, semizlik)	Ijtimoiy fishor, nomuvofiq ovqatlanish madaniyati, iqtisodiy omillar sabab. Jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sir qiladi.
6	Zo'ravonlik va psixologik travmalar	Oilaviy, maktab yoki ish joyidagi zo'ravonliklar natijasida ruhiy va jismoniy jarohatlar kelib chiqadi.
7	Qashshoqlik tufayli surunkali kasalliklar	Kamqonlik, tuberkulyoz, gipertoniya, bronxit kabi kasalliklar turmush sharoiti yomon aholi orasida keng tarqalgan.

Giyohvandlik, alkogolizm va OITS kabi kasalliklar jamiyatda jinoyatchilik, oilaviy zo'ravonlik, ijtimoiy cheklanish va ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holatlar ijtimoiy barqarorlikka tahdid soladi. Yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy kasalliklar ta'lim sifatini pasaytiradi, ijtimoiy

faollikni kamaytiradi va kelgusi avlodning intellektual salohiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ijtimoiy kasalliklar faqat sog'liqni emas, balki inson salohiyatini, madaniy taraqqiyotni va innovatsion faollikni ham cheklaydi. Bu esa milliy rivojlanish jarayoniga to'sqinlik qiladi.

Ijtimoiy kasalliklar – bu sog'liqni saqlash tizimi uchungina emas, balki butun jamiyat uchun keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy muammodir. Ularga qarshi kurashish uchun tibbiy choralar bilan bir qatorda, sotsiologik tahlil, jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirish, profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, va aholining tibbiy madaniyatini oshirish zarur.

Tibbiyot sotsiologiyasi – fanlararo (interdissiplinar) yo'nalish hisoblanib, u sog'liqni saqlash tizimi, inson salomatligi va tibbiy muammolarni turli sohalar kesishmasida o'rganadi. Bu fan tibbiyot, sotsiologiya, psixologiya, bioetika, iqtisodiyot va ekologiya kabi sohalarning nazariy hamda amaliy yutuqlariga tayanadi [13]. Shu jihatdan tibbiyot sotsiologiyasi inson salomatligi va kasallikka ijtimoiy ta'sir etuvchi omillarni teran anglashga xizmat qiladi (6-jadval).

Tibbiyot sotsiologiyasi fanlararo yo'nalish

6-jadval

Sohasi	Bog'liqlik mohiyati
Tibbiyot	Bemorlarning salomatligiga ijtimoiy muhit (yashash sharoiti, ish joyi, ta'lim darajasi, mahalla hayoti)ning ta'sirini o'rganadi. Masalan, bir xil kasalliklar turli ijtimoiy guruhlarda turlicha tarqaladi.
Psixologiya	Bemorning ruhiy holati, kasallikni qanday qabul qilishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning davolanishga ta'siri o'rganiladi. Shifokor-bemor munosabatlari, ishonch va ruhiy barqarorlik masalalari muhokama qilinadi.
Sotsiologiya	Kasallik va salomatlikni jamiyatdagi ijtimoiy tuzilma, madaniy qadriyatlar, gender, yosh, tabaqalashuv, va tengsizlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Sog'liqni saqlashning ijtimoiy institut sifatidagi vazifalari o'rganiladi.
Iqtisodiyot	Tibbiy xizmatlarga yetishuvchanlik, sug'urta tizimlari, sog'liqqa sarflanayotgan xarajatlar, kambag'allikning sog'liqqa ta'siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy tengsizlik iqtisodiy resurslar taqsimoti bilan bog'liq holda o'rganiladi.
Etika (bioetika)	Tibbiy qaror qabul qilishda axloqiy me'yorlar, bemorning huquqlari, ma'lumot maxfiyligi, tibbiy etika masalalari o'rganiladi. Jamiyatda qanday axloqiy qadriyatlar tibbiy amaliyotni shakllantiradi — shu nuqtai nazarda tahlil qilinadi.
Ekologiya	Atrof-muhitning salomatlikka ta'siri — suv va havo ifloslanishi, oziq-ovqat xavfsizligi, sanitariya shartlari kabi holatlar tibbiyot sotsiologiyasida alohida o'rin tutadi. Ekologik omillar ijtimoiy guruhlarga turlicha ta'sir qiladi.

XULOSA

Demak, tibbiyot sotsiologiyasi inson salomatligi va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida bu fan jamiyatning salomatlik bilan bog'liq muammolarini yechishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yondashuvlarni taqdim etishi mumkin. Bu nafaqat shifokor va bemorlar, balki umumiy jamiyat farovonligini oshirish uchun ham muhimdir. Salomatlik jamiyatning muhim boyligi bo'lib, uni saqlash va mustahkamlash jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun asosiy shart hisoblanadi. O'zbekistonda ham salomatlikni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash orqali umumiy sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida tibbiyot sotsiologiyasi aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan samarali ijtimoiy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlar jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlashga hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Решетников А.В. Социология пациента // А.В.Решетников, С.А.Ефименко. – М.: Здоровье общество, 2008. – 304 с.
2. Ахмедова Ф.М. Подход восточных мыслителей к проблеме формирования личностных и профессиональных качеств у молодого поколения. Журнал социальных исследований, 2020. Том 3. №3.
3. Сурмач М.Ю. Социология медицины как научная специальность и как предмет преподавания: проблемное поле, перспективы развития / М.Ю.Сурмач // Социология. – 2015. – С. 97-104.
4. Становление социологии и социологические ассоциации / В.И.Добреньков, В.В.Зырянов, А.И.Кравченко [и др.]/ под ред. В.И.Добренькова. – М.: Альфа-М, 2006. – 64 с.
5. Решетников А.В. Становление и развитие социологии медицины / А.В.Решетников // Социология медицины. – 2002. – №1. – С. 3-13.
6. Решетников А.В. Социология медицины (введение в научную дисциплину): Руководство / А.В.Решетников. – М.: Медицина, 2002. – 76 с.
7. Ахмедова Ф. Тиббиёт социологиясининг фанлараро илмий йўналиш сифатида шаклланишининг хусусиятлари. Ижтимоий тадқиқотлар журнали, 2020. Т.5. №2. – Б.91-99
8. Akhmedova F. Tibbiyot yo‘nalishidagi sotsial muammolar. Journal of innovations in scientific and educational research volume-2, issue-15 (28-February). 2023, T.2, №15. – Б.15-20.
9. Bekmurodov M., Akhmedova F. Study the Process of Harmonization Formation of Personal and Professional Qualities at Students. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020, T.24. – P. 597-605.
10. Решетников А.В. Социология медицины и здравоохранения. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2005.
11. Cockerham W.C. Medical Sociology (15th ed.). – New York: Routledge. 2021.
12. Turner B.S. The New Medical Sociology. – McGraw-Hill Education, 2004.
13. Ахмедова Ф. Социологический анализ междисциплинарного подхода при подготовке медицинских кадров. Bulletin of LN Gumilyov Eurasian National University. Pedagogy. Psychology. Sociology series. 2024/7/26. T.147, №2. – С. 672-683.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000